




Rus adabiyoti dardonalari

۱۹۹۳

D.S. Samoylov



**TO'LOIN VA
TOSH**


874.161.1-1

unicat.xp

S-29

Rus adabiyoti durdonalari


DAVID SAMUILOVICH SAMOYLOV



TO‘LQIN VA TOSH

She'rlar, balladalar, elegiyalar va dostonlar

TOSHKENT
«O‘ZBEKISTON»
2021



UO‘K 821.161.1-1
BBK 84(2Ros=Rus)
S 29

Tarjimon – Humoyun AKBAROV

XX asr rus she‘riyatida yorqin iz qoldirgan David Samoylov «urush avlodlari» shoirlaridan. U jang qildi, og‘ir mehnatda suyagi qotdi, turli taqiqlarga uchradi, ammo qalbiga xiyonat qilmadi. Ko‘rgan-kechirganlarini qog‘ozga to‘kib soldi. Shoir sifatida rus adabiyoti an‘analariga sodiq qoldi, lekin o‘z ko‘ngil dardlarini bitdi, o‘z she‘riyatini yarata oldi.

Hali o‘zbek she‘rxoni uchun notanish bo‘lgan Samoylovning nafis hissiyot-u, xassoslik ila o‘zbekchalashtirilgan she‘rlarini o‘qir ekansiz, qalbingizda shoirning ko‘ngil iztiroblari uyg‘onadi, ko‘ngil yaratilgan yorqin taassurot qoladi. Ta‘bir joiz bo‘lsa, kitob mutolaasidan so‘ng «og‘zingizda she‘rlar ta‘mi qoladi».

Mazkur to‘plamga shoir ijodining turli bosqichlaridagi qalb ixtirolari – she‘rlari jamlangan bo‘lib, ular, shubhasiz, kitobxon botinida burilish yasaydi.



O'CHIROLMAS SHAMLARNI BO'RON

David Samoylov «Taqriz» nomli she'rida shoir yozgani qanchalik ohangdor, bekam-u ko'st bo'lmasin, agar uni taqdir shoir qilib yaratmagan bo'lsa, barchasi bekor, degan fikrni aytadi. U o'zining falsafiy qarashlariga sodiq qolib, hayoti davomida o'zi boshidan kechirgan voqea-hodisalarnigina qalamga oldi va Ikkinchi jahon urushi davrida yashagan avlod sifatida rus adabiyotida jangchi-shoir bo'lib tanildi.

1920-yilda Moskvada ziyolilar oilasida tug'ilgan Davidning (asl ism-sharifi – David Samuilovich Kaufman) otasi taniqli shifokor, onasi esa tarjimon edi. 1938-yili Moskva falsafa, adabiyot va tarix institutiga qabul qilindi; balki uning ijodiga xos falsafiy tafakkur va tarix mavzusiga murojaat etishining tub ildizlari talabalik yillariga borib taqalar. Institutning birinchi bosqichini tugatgach, ko'ngillilar safida rus-fin urushiga (1939–1940) yuborishlarini so'rab ariza beradi, ammo tibbiy ko'rikdan o'tolmaydi.

Ikkinchi jahon urushi boshlanganda u mehnat frontida bo'lib, transheya qaziyotgan edi. Bu yerda og'ir xastalanib, davolanish uchun Samarqandga evakuatsiya qilinadi. Nihoyat, sog'ayib chiqqach, avvalo, shu yerdagi kechki pedagogika institutiga, uni tugatmay turib, harbiy bilim yurtiga o'qishga kiradi, ammo yana ta'limni yakuniga yetkazolmaydi – 1942-yili Volxov frontiga yuboriladi.

1943-yili Leningrad ostonasida bo'lgan janglarda qo'lidan yaralanadi. 1944-yilgacha davolangan shoir yana frontning ilg'or jabhalariga qaytadi, razvedka xizmatida faoliyat ko'rsatadi va 1945-yilda muhim ma'lumotlarni bilgan nemis zobitini asirga tushirgani uchun yuksak mukofot bilan taqdirlanadi. Shoir Berlinga qadar oldingi saflarda jang qiladi, ko'plab qahramonliklar ko'rsatadi.

Urush tugaganidan so'ng, 1945-yili Moskvaga qaytgan shoirning qalbida ko'rgan-kechirganlari tosh singari o'chmas xotira bo'lib qolgandi. Beshafqat qirg'in oqibatlari uning shaxs sifatida shakllanishida, front manzaralari esa ijodida urush yetakchi mavzuga aylanishiga turtki bo'ladi. «Qirqinchi yillar», «Bojena», «Metin mazurka», «Xavotir» singari o'nlab she'rlari, «Xotiram oralab», «Qorbo'ron» va boshqa dostonlarida beshafqat urush odamlar taqdirini ayanchli darajada o'zgartirib yuborganiga urg'u beradi.

*Qirqinchi, qirg'inli yillar,
Qo'rg'oshin o'q, havotir, hadik,
Urush kezar Rossiya bo'ylab,
Eh, qanchalar bizlar yosh edik.*

Nafaqat o'zi, o'z yurti, balki ukrain, polyak va boshqa ko'plab xalqlarning hayoti, hatto dushmanlar – olmonlar hayoti ham izdan chiqib ketgani, tinchlik naqadar bebaho ne'mat ekani shoir nigohidan chetda qolmaydi. Samoylov bu paytda 20-25 yoshlarda bo'lib, yosh yigit hayotining har lahzasiga o'lim xavf solib turganini tasavvur qilish mumkin. Keyinchalik bu haqida o'zi shunday yozgandi: «*Frontdan qaytganimda, butun urushni boshimdan kechirib, katta hayotiy tajriba orttirgandim, ammo ijodiy tajribam avvalgi darajada qolib ketgandi. Bu ikki omil o'zaro nomutanosib keldi.*»

Urushdan keyin shoir butun umrini erkin ijodga bag'ishladi. Asosan, radiossenariylar yozish, turli tillardan tarjimalarni amalga oshirish bilan tirikchilik qildi. Biroq she'riy to'plamlarini chop etishga shoshilmadi, ijodiy tajribasini oshirish borasida tinimsiz izlandi. Avvalo, buyuk rus shoiri Aleksandr Pushkin ijodini chuqur o'rgandi va unga bag'ishlab o'nga yaqin she'rlar yozdi, qolgan she'rlarida ham buyuk shoir nafasi sezilib turadi. «Boldino kuzi», «Pestel, shoir va Anna», «Mixaylovsk» singari she'rlarida ulug' shoir timsolini yaratishga intildi. Umuman, Samoylov ijodiy uslubi takomilida Pushkin tajribalaridan samarali foydalandi. Shu boisdan ham o'zi va do'stlarini Pushkinning «so'nggi shogirdlari» deya e'tirof etadi:

*Rossiyada bor ekan Pushkin,
O'chirolmas shamlarni bo'ron.*

Samoylovning birinchi kitobi – «Yaqin diyorlar» 1958-yilda nashrdan chiqadi. Bu vaqtga kelib uning she'rlari omma orasida tarqalib, qo'shiqlarga aylanib bo'lgandi. Ikkinchi kitobi «Ikkinchi dovon» 1963-yilda, «Kunlar» kitobi esa 1972-yilda dunyo yuzini ko'radi.

Samoylov she'riyati falsafiy mushohada, lo'ndalik, soddalik, rost va haq so'z, voqebandlik, ohangdorlik, hayotsevarlik singari uslubiy xosliklar bois muxlislari soni ortib bordi, ayrim she'rlari rus qasidavislari (bard) orasida keng yoyildi. Shoir uchun asosiy-si ijod, she'riyatga sadoqat edi, u shon-shuhrat ortidan quvmadi. O'tgan asrning 50-yillaridan boshlab moskvalik yoshlar, ziyolilar uning ijodiga qiziqish bilan qaray boshladi. Ayniqsa, uning Anna Axmatova, Nikolay Zabolotskiy, Korney Chukovskiy, Samuil Marshak singari ulkan shoirlar e'tiborini qozonganini ta'kidlash joiz.

1974-yilda – hamma sho'rolar poytaxti Moskvaga talpingan zamonda u poytaxtni tashlab, Boltiq dengizi sohilidagi Pyarna ko'rfazi (Estoniya Respublikasi) yaqinida joylashgan shaharchaga ko'chib o'tadi. Buning sababi, albatta, senzura kuchaygan Moskvadan ko'ra olis Boltiq bo'yida erkin ijod qilish imkoniyatlari ko'proq edi, deb yozadi mutaxassislar. Shoir vafotidan so'ng (1990) ma'lum bo'lishicha, u o'sha vaqtlarda tegishli idoralar tomonidan kuzatuvga olingan ekan. Balki shoir eng asosiy narsa – erk, ozodlik tuyg'usini muqaddas bilib, olis dengiz sohiliga ketgandir. Samoylov bu holatni o'zgacha go'zal ifodalaydi: *«Samo va dengiz nurlaridan yorishgan bu sokin va yam-yashil go'shada, unchalik katta bo'lmagan va ko'hna qal'alarning xarobalari saqlanib qolgan bu qurama shaharchada, xiyobonlariga baland daraxtlar hayratlanarli did bilan ekilgan bu bo'stonda, tabiatning barcha fasllari o'ziga xos kechadigan bu makonda – mushohada yuritish va ijod qilish uchun naqadar qulay sharoit yaratgan...»*

Shoirning tabiat lirikasida ko'rfaz manzaralari tavsifi asosiy o'rin tutadi. Hatto mana shu tasvirlar ham ramziy ma'no kasb etib, falsafiy qarashlarni ifodalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, «Pyarna elegiyalari» turkumidagi she'rlarda bu yaqqol ko'rinadi:

*Qalb tozargan dengizdan, murdan –
Qumga yozar u – daho, tinmay.*

*Hayajon izini to'ldiray
Va o'chirar asabiy birdan.*

Umuman, shoir ijodini butunligicha tarix va muhabbat fojiasi tarixi deyish ham mumkin. U kechmish muhabbatning nurli lahzalari uchun shukrona keltiradi, yoshlik faslida, oz bo'lsa-da, shirin damlar baxsh etgan hayotdan minnatdor bo'ladi.


David Samoylov she'rlar yozish bilan bir qatorda venger, litva, polyak, chex va boshqa tillardan rus tiliga tarjimalar qildi, she'r san'ati tadqiqiga bag'ishlangan «Rus qofiyasi haqida kitob» hamda bolalar uchun vatanparvarlik mavzusida ko'plab asarlar yozdi. Tarjimai holi bilan bog'liq bo'lgan «Xotiralar» (1995) nomli nasriy kitobida esa Anna Axmatova, Boris Pasternak, Ilya Erenburg singari o'nlab ijodkorlar, jumladan, Ikkinchi jahon urushi davri yoshlar she'riyati haqida bebaho esdaliklar qoldirdi.

Umrini adabiyotga bag'ishlagan Samoylovning adabiy merosi hajman kichik bo'lsa-da, mazmunan boy va rang-barang, serqirra rus adabiyotida o'ziga xos o'rin egallaydi.

Adib xotirasini abadiylashtirish maqsadida Moskva va Pyarna shaharlarida u yashagan uylarga yodgorlik lavhalari o'rnatilgan. Estoniya poytaxti Tallinda David Samoylov jamiyati faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, Tel-Avivda rus tilida ijod qiladigan yozuvchilar uyushmasi tomonidan David Samoylov nomidagi mukofot ta'asis etilgan.

Tarjimondan





* * *

Yashashni o'rganish fursati yetgan,
Tokay g'amda qovurilay, axir.
Do'stlarimni, ehtimol, birdan
Yana jangga otarmi taqdir.

Yelkamizda yashil pogonlar.
Yana harbiy soqchi, posbonlik.
Yana o'sha yog'och vagonlar,
Yog'och xochlar yoki omonlik.

Ammo, aslo! Endi qaytmagay
Borodino jangi, beomon,
Neki shoir she'rda aytmagay
Bizlarga ham ko'rsatmas zamon.

1940-yillar





BOJENA

Xo'p aldadi ukrain qizlar,
Bizni o'pdi polyak qizlari...
Kim sanabdi qanchadir ular,
Nozik nihol, ma'yusdir bari:
Samamida bosqinchi qizlar,
Koval yoqda – qora qoshlilar,
Lukov yoqda – jodugar ko'zlar
Va Sedletsda – malla sochlilar.

Ammo bosilmaydi, baribir
Qalb tashnadir azaldan-azal.
Qanday bo'lsa, shunchalar og'ir
Yurak dardi qadimgi mahal.
Kechuvda,
Pulava so'lida,
Chegara chizig'i yo'lida
Yorib o'tdi zirh mashinada
Ilg'or guruh yondan, panada.
Bizni polyak qizlar kutdilar,
Kosada sut qildilar tortiq,
Yana tuzsiz non ham tutdilar.
Uchinchi kun berildi hordiq:
Biz tarqaldik uyma-uy, bir-bir,
Posbon bo'lib qoldi kimlardir.
Toza spirt berdi yuz gramm,
Ichib, toshday uxlanar, axir.
Qat'iy qonun urushda har dam:
Mana bu non, toshday bir bo'lak,
Mana bu ko'k spirt, bir qultum.
Ammo yo'ldan chiqsa bir malak –

Unutilar qonunlar bir zum,
Oz bo'lsa-da, parvoying falak...

Jilmayishi misli oppoq qor:
Ko'z qamashdi, yondi yurak jim.
Kiprigida ajib hayot bor,
Tin olmadim, uxlay bilmadim,
Uch kecha-yu uch kunduz bedor
Jang qilgandim, lahza tinmadim.

Bojena! Shu yerdan qaytsaydi
Yo'l tugasa, jonim bersaydim.
Faqat davom etmaslik uchun,
Faqat bo'sa, ketmaslik uchun.
Qochib temir qafasdan shu on,
Unutilib qoida, nishon,
Katta yo'lda chiqmasa faqat
To'rtinchi regiment¹, hamma jim.
Hordiq nima – bir necha soat,
Undan keyin – yurakda zulfin...

Nogoh sado berdi to'pponcha
Qayerdadir tun orasida.
Shu lahzada otildi ancha,
Pulemyotdan qatorasiga...
Sakrab turdik askarchasiga,
Unutildi lahzada bo'sa.
Yo'l-yo'lakay eplab kiyinish,
Qo'limizda zil-zambil po'stin.
Darvozadan narisi urush:
Erkaklar yumushi – bor bo'lsin!
Alvido, ey baxtim, Bojena!
G'oyat mamnun bo'lardim, lekin,
Hordiq kerak ekan, ha, yana!

1940-yillar

¹ Polk, harbiy qism (*izohlar tarjimonniki*).



* * *

Yana Gefest oldi yoyday qalqonni.
Mudom xiyonatlar gangitar bizni.
Yuvosh erlar kutmas Yelena qizni,
Keldimikin Andromaxlar zamoni?

O'sha istalgan taft ayoldan emas,
Qaldirg'och qanotmas cho'zilgan qo'llar.
Zilday qilich tushsa sandon uzra, bas –
Yaqindir ayriliq. Ayrilar yo'llar.

Yelena safsata! Axiylar o'lgan...
Endi u xoklardan bir narsa qolgan –
Hektor – Andromax xayrlashgan dam
Lablarida muzlab qolgandi alam.


1940

* * *

Seni bilarlar she'rimdan, ra'no,
Seni sevganlarga g'amlarim oshno.
Kaftingga egildim suv ichmoq bo'lib –
O'sha kundan buyon tashnaman, tashna!

1940





* * *

Otda shunday choparlar mohir,
Moviy oqim shundayin tinar,
Eski tashvish, g'am-g'ussa oxir,
Yangi g'am-la tez unutilar.

To'qchilikka alishilmas, yo'q,
Sargardonlik, vijdon, alqissa.
Eslaydigan kunlarimiz ko'p,
Shuning bilan tugamas qissa.

Besh kun taraq-turuq eshelon,
Qishloqlar qoraydi zulmatda,
Manglay yopib bo'ldi go'riston,
Qancha kulrang shinel dahshatda.

Zahar-zaqqum tamaki tortmoq,
O'limga shay bo'lib, alqissa.
Shunday bo'lgan. Eslanar shundoq.
Shuning bilan tugamas qissa.

Benaf o'tdi yillar umrdan,
Jahannam, jahoniy toshqinda.
Askarlar noliydi taqdirdan
Zax handaqda, o'q yog'inida.


Chopganda ham tegar daydi o'q.
Hujum – bu yangilik emas-da!
Qorda muzlar murdalar to'p-to'p.
Shuning bilan tugamas qissa.

Shunday kunlar birida sahar
To'zonda uyg'ondik, bizlarga
Olov ichra keldi xushxabar:
Berlin taslim bo'ldi ruslarga.

Tasmadan yechildi qurollar,
Qahr ketdi – yurakdan esa.
Sen yashading qiyomat qadar,
Shuning bilan tugamas qissa.

1945





* * *

Muhabbatga huquq berilar,
Nohaq yashab kelar rashk, biroq
Alaf kabi o'sadi ular,
U alafdan ko'ra kuchliroq.

U qishda ham o'sadi ildam,
Muzda, qorda qurib ketmaydi.
Bunday joni sabillar bilan
Kurashmoqqa kuchim yetmaydi.

1945






BOSQINCHI QIZ

Dushman qizni qatlga eltdim.
Yolvormadi u shafqat tilab.
Mag'rur, g'azab bilan boqdi jim.
Og'riqdan jun ro'molin tishlab,
Menga dedi: «Eshit, ey bola,
Meni otib tashlaysan, tayin.
Sen tepkini bosmay so'ng bora,
Ukrainaga to'yib boqayin.
Ukrainada chopadi tulpor
Bandera bayrog'i ostida.
Ukrainlar yashirar qurol,
E'tiqod istaydi aslida.
Yashil sharob otash, qaynaydi
Bereznoda, oq kulbalarda,
Mast moskalga kulib qaraydi,
Gardaniga miltiq tiraydi.
Pecheneglar talansin battar!
Uvvos solsin rus ayollari!
Ukrain nonini yeb yotar
Moskallar-u, shvablar, bari!
Yemasinlar bizning go'sht-yog'ni,
Bo'kmasinlar bizning aroqqa!
Tarixchilar yozmagan to'g'ri
Rossiya kim, xoxol qayoqda!
Jilovni qo'y, marjonlar kabi
To'lib ketsin hosil dalada!
Ne xohlaydi kommunist qavmi

O'z Rusida ozod pallada...
O'ylab topdi kolxozni, juda
Noshudlarga, laqmaga, ammo
Baribirdir Ukrainada
NKVD yoki Gestapo».
So'ng men dedim: «Tezroq yur, ilon,
Qilmishing yarasha jazoga.
Senmi, kecha so'yding beomon –
Do'stim ketdi nargi dunyoga.
Sendaqalar to'la olamda,
Kam toparsan do'st kabilarni.
Yo'l chetida o'larsan g'amda,
Kutib yurmay tribunalni».
Borar edik ovloq dalada,
O'rmonda qush nolasi – hasrat.
Otilishga ketar pallada
Yolvormadi qiz tilab shafqat.

1946





SIBIR

Sibir! O‘, sen tomon uchgim keladi,
Tog‘-u toshlar sari, liboslar mo‘yna.
Quturgan Angara toshib yeladi,
Og‘zi ko‘piklanib, shomonday o‘ynar.

Sibir! Ezg‘ilanding eng katta yo‘lda,
O‘rol dovon yo‘li moviy osmondan.
Birdan – Boyko‘l chiqar yetti shamolda
O‘g‘irlagan moviy rangin ummondan.

Sibir! Ming yillarning hadsiz o‘rmoni.
Bolalik ertagim, sevaman, axir.
Irtish, Tobol, mangu qorlik makoni,
Sevaman qirg‘izcha ko‘zlaring, Sibir.

Sibir konlarining qa‘riga qadim
Cho‘qmor tashlanganda misoli langar,
Ishonib yetdilar – yengolmas o‘lim,
Nihoyat, porladi tonglar sochib zar.

Uvillab chalganda burg‘u qorbo‘ron,
Oltin izlovchilar uni qarg‘ashgan,
Tatar yonoqlilar changal solgan on,
Peterburg yov kabi senga qarashgan.

Mana, endi men ham sensiz turolmam,
Sensiz, Sibir! Mamont tishlari emas,
Yo‘limiz bog‘lamas boylik, oltin ham,
Balki ma‘nili til erki zo‘r havas.

Sibir! Sen erkinlik kengligisan, o,
Kenglik shaldiraqmas, zo‘r kishandadir.
Yastanibdi Oltoy, tosh bolta go‘yo.
Qabul et va o‘yla, yumush ko‘p, axir!

1946

I. L. S¹.

Burgut poloponin payqagan kabi,
Bizni tanidingiz ovozimizdan.
Yana yo‘llashmasin sizni xavf sari,
O‘t-olov ichiga, ayrib bizdan!

Bu kunlar nafasi og‘irdir g‘oyat.
Yaltoqilar ozga qanoat qilar.
Urush tugadi-ku! Endi, nihoyat,
Keksa generallar dam olsa bo‘lar.

Ammo sizga nasib etmaydi bu ham.
Ko‘rasiz otishma to‘garagida
Bo‘lajak hujumlar tasvirin, har dam
Yangi safarbarlik o‘yi-payida.


Xonada taraqlar taxtapol ba‘zan,
Yurasiz, changallab boshingiz, yolg‘iz,
Yana o‘zingizga boqib qaytadan
Ko‘nglingiz tinchiydi, axir, siz haqsiz.


Haqsiz, balki, rosti, gap bunda hammas,
Bizning ishtibohlar mangudir, shaksiz.
Ammo bunga kafil – har jild, bejizmas,
Ham sizning arkonday katta kursingiz.

Siz uchun she‘riyat qat‘iylik, axir,
Safsata begona, safsata nedir.
Har qanday mutlaqo xatosiz satr
Faqat haqiqatga, haqqa tobedir.

1946

¹ Ilya Lvovich Selvinskiy (1899–1968) – rus shoiri, narsnavisi va dramaturgi.
Kontruktivistlar adabiy markaziga asos solgan.





SO‘Z

Tutolmaysan qo‘lingda zinhor,
Bekita olmaysan stol chetiga.
Meni o‘qday yashirish darkor
Silliqqina stvol ichiga.

Har yondan siqilgan tanada
Tahdidlar kuch. Nishonni, ammo
His qila bil qizg‘in pallada...
Titramasin qo‘llaring aslo!

1947





XAVOTIR

Urush haqda so‘zlanar uzoq,
Tan kesilsa qarag‘ayda ham,
Toza stol kabi to‘ngak nam
Yuzasida yelim bor biroq.

Qo‘lda chalg‘i tortgan xotinlar –
Tushda ko‘rar to‘plarni goho.
Yerto‘la bombaday oh tortar,
Ko‘chki ko‘chsa berib aks sado.


Yotoqqacha kiradi urush,
Ayon bo‘lgay ixrash yo sasda,
Og‘rir o‘rni, o‘q tekkan, noxush,
Sado bermas bu qo‘l aslida.

So‘z xotirda uzoq yashagay
Qurollar stvoli rangida.
Maysa uzra mangu qarag‘ay,
Ko‘karadi porox rangida.

Endi malham bo‘lmas hech narsa,
Endi qalblar bezovta, titrab.
«Kimsan, to‘xta?» – deymiz kim kelsa,
To‘pponchani lunjiga tirab.

1947





* * *

Achinaman uyda vafot etganga,
Baxtlidir u, dalada jon bersa ham,
Beg'ubor shamollar asta esganda
Og'rigan boshini silaydi, hamdam.

Faryod cheksa, yetib kelar singlisi,
Akasiga najot suvin tutadi.
Icholmaydi, ammo kelar ichgisi,
Suv lablar chetidan oqib tushadi.

Alanglaydi, aytolmaydi so'z yana,
Labiga yopishar bahorgi poya,
Atrofdan na uy bor, na bir boshpana,
Faqat ko'kdan bulut soladi soya.

Qondoshlar uzoqda, bexabar undan,
Dalada chiqarkan so'nggi nafasi.
O'qning jarohati pand berdi shunda.
...Axir, uzoq yurar dala pochtasi.

1949





APREL

Uyqudagi go‘zal kabi hurliqo,
Bosh ko‘tarib, sochin ortiga tashlab,
Aprel uzoqlarga boqadi go‘yo
Samo va muz rangli ko‘zini yoshlab.

Hali zamin og‘zi to‘la, yutoqib
Tegirmondan ichar erigan qorni,
Yo‘lchilar kattakon kosani olib
Muzday may ichganday yo‘l oldi.

Yer shari – yo‘lovchi, yo‘loldi bir dam
Dala iforini simirar chuqur,
Jizzaki beka-la xayrlasharkan,
Turnalar parvozin kuzatardi u.

1949–1955-yillar orasi





FAN

O'rgan omadsizlik ilmini, agar
So'qir bo'lsang, beshak ko'zing ochilar,

Qahhor bo'lasan sen, beqahr bo'lsang,
Kimxob kiyadirsan, yalang'och yursang.

Ochib ko'r ofatlar tarxin bir karra,
Tishlaring bo'ladi misoli arra.

Ofatga ne malham, o'qi darsini,
Zafar, mag'lubiyat xaritasini.

O'rganma savdogar muammosini,
To'g'rilay bil ahmoqlar xatosini.

Kim istar: ikkita ikki to'rt bo'lsin,
Mohiyatning barcha qonunin bilsin.

1950-yillar





* * *

Men o'lganda, to'xtar o'shal dam
Muhabbat-u, nafrat-u, nafas.
Istardimki, meni ko'p odam
So'nggi yo'lga kuzatishsa, bas.

Motam karnaylari nafasi
Jar solsinlar, qilmasin sukut.
Binoyidek bo'lsin hammasi,
Arava-yu, gullar-u, tobut.

Aravaga ortgach tobutim,
Sezilar uy bo'shab qolgani.
Men qosh qoqmay yotadirman, jim,
Yig'latgim keladi hammani.

Menga behad ko'rinar g'alat,
Do'stlar faryod chekishi qiziq.
Kimni dafn etishar shu vaqt?
Nahotki, men, tobutda o'zim?

Qizilchaga yo'liqdim, axir.
Ko'z oldimda oq qor aylanar,
Otam o'qib beradi: «Hozir
Karomatli Oleg shaylanar...»

Yelkasida yo'lxalta – bu men,
Qachondir ketganim – urushga.
Yo'llarimga boqar eding sen,
Bosh tirab deraza, tirqishga.

Rossiya haqida ash'orlar
Daftariga yozgan menmasmi,
Hujumga o'tganda ag'yorlar,
Pulemyotdan otgan menmasmi,


Xavf ostida, yirtiq shinelda
Cho'g' oldida mudragan menmi,
Polyak qizlar sevgani yo'lda,
Nahotki, men emasmi, menmi!?

Menga behad ko'rinar abas
Sevikli va baxtli bo'lganim.
Men butunlay bundayin emas,
Men butunlay boshqacha edim.

Hali qilar ishim ko'p bunda!
Axir, qarzim ko'p ko'pdan, faqat...
Ko'zim ochmoq istayman shunda,
Ammo ocholmayman toabad...

1950-yillar






IKKOVLON

Chet tuman, qahvaxona.
Kichkina va soz guruh –
Ikkovlon chalar yona,
Baralla, ko'ngilda ruh.
Biri miqti sibirlik,
Juda g'amgin, samimiy.
Unga jo'rovoz sherik –
Skripkachi yahudiy.
Ayiq kabi bo'kirar
Garmon juda xirillab.
Skripka-chi, jo'r bo'lar,
Navo qilar chiyillab.
Va musiqa sehridan
Ko'zga yosh to'lgan choqda
G'ijim so'mlikni birdan
Oladilar qalpoqqa.
Bunday kuylarga sakrab,
Sho'xroq o'ynalar, qani,
Garmonchini olqishlab,
Olqishlab skripkani...
Eng so'nggi mast-alast ham
Uyiga tushgach yo'lga,
O'tirishar xotirjam
Mashshoqlar chet stolga.
Dim ichar ikki sherik
Omadli kun, adoqda –
Istakonda sibirlik,
Skripkachi qadahda.

1952



KO'PRIK

Temir panjarali ko'prik chiroyli,
Moviy samo parchasi oynadir, oyli.

Agar uni ajratsang,
Samolardan – moviyrang –
Huvillab qolar, yalang.

Mana bu san'at, qarang.

1952

SHE'R VA NASR

Qaldiraq keldi qahrga,
Yil o'tib, tugadi-ku.
Aylanaman nasrga,
Muzlaganday zilol suv.

1952





BOLALIKDAN


Kichkintoyman, tomog'im og'rir,
Derazada oq qor aylanar.
Otam menga kuylardi: «Hozir
Karomatli Oleg shaylanar...»

Yuzlarimni yostiqqa bosib,
Qo'shiq tinglayman-u, yig'layman,
Uyatdan yashirib ko'z yoshim,
Yana, yana ayt, deb so'rayman.

Uyda kuzgi pashshalar g'ujg'on,
Mudratguday g'ing'illar dushvor.
Dunyo bebaqo deb, bag'rim qon.
Men, kichkintoy, g'o'r, sodda, bemor.

1956





* * *

Ishonaman mardlik, mehrga
Zamonlar almashar bo'lganda,
Aldamchi qiyofa sehridan
Odamlarning ko'ngli qolganda;

Ustunlarni yiqitishgan dam,
Cho'ng gumbazlar qulab tushganda,
So'z ham, maqsad, faoliyat ham
Puch ko'rinib ketadi shunda!

Ammo chidam – sinovlar aro,
Qamchi dilga solganda hadik –
Lozim unga bo'lguvchi davo –
Mardonalik hamda ezgulik.

Bandargohni qidirgan kunlar,
Sayozlikka botmoq oson-da,
Aldamchi orzular – tugunlar,
O'qdan havfli, tekkan nishonga.

Noaniqlik yo beparvolik
Halokatli erur – oshkora.
Faqat mardlik, mehriyolik
Hovallikdan asrovchi chora.

1956





D.S. Samoylov

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7144-0-3



9 789943 714403